



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIY FANLAR FAKULTETI

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц. Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц. Масъул котиб- Д.К.Мурадова	1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц. 2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН) 3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА 4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya 5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор 6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор 7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор 8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц 9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б. 10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф. 11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф 12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц. 13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц. 15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц 16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц. 17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD) 18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц 19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD) 20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц 22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
Муассис-Жиззах давлат педагогика институти	
Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)	
Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул	
Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

EFIR SAQLOVCHI O`SIMLIKLARNING TABOBATDAGI O`RNI

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi, O`qituvchi
Bahronova Azima Furqat qizi, 3 – bosqich talabasi
Halilov Jahongir Erkin o`g`li, 3 – bosqich talabasi
Jizzax Davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya. Ziradoshlar oilasi ko`pchilik vakillari o`ziga xos murakkab tarkibga, efir moyiga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, arpabodiyon, kashnich, zira, shivid, petrushka, yalpiz kabi o`simliklar o`zida ko`p miqdorda efir moyi saqlashi bilan alohida ahamiyatga molik.

Kalit so`zlar: ziravor, dorivor, tabiiy, kashnich, shivid, zira, shifo, efir, moy, tarkib, ekma, yovvoyi, iste`mol, tibbiyot, urug`, poya, foydali, anetol, kimyoviy.

Biz turmushda keng foydalanadigan ko`plab o`simliklar o`zining murakkab tarkibi bilan tabobatda alohida o`rin tutadi. Ayniqsa, ularning tarkibidagi kimyoviy moddalardan efir moyi murakkabligi jihatdan alohida ahamiyatga molik bo`lib, ham oziq – ovqat, ham tabiiy dorivorlik xususiyatini namoyon qiladi. Shunday efir moyli o`simliklarga bir nechta namunalar, ularning dorivorlik xususiyatini aytib o`tishni joiz bildik.

Oddiy (anissimon) arpabodiyon – Ziradoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub bir yillik o`t o`simlik.

May – iyun oylarida gullab, mevasi iyun – iyulda pishib yetiladi.

Chet ellarda tarqalgan. O`zbekistonda ayrim joylarda ekib o`stiriladi.

Tibbiyotda arpabodiyonning mevasi va undan olinadigan efir moyidan foydalaniladi. O`simlikning yer usti qismi mevasining 50 – 60 % i pishgandan so`ng o`rib olinadi.

Arpabodiyon mevasining tarkibida 1,2 – 3,2 % (ba`zan 6 % gacha) efir moyi, 8 – 28,4 % moy, oqsil va boshqa moddalar bor.

Mevaning asosiy ta`sir etuvchi qismi uning tarkibidagi efir moyi, efir moyining asosiy qismi esa anetol (moy tarkibida 80 – 90 % anetol bo`ladi) hisoblanadi.

Arpabodiyonning efir moyi o`ziga xos yoqimli hidli, shirin mazali, och sariq rangli yoki rangsiz suyuklidir.

Arpabodiyon mevasi o`z tarkibida saqlagan efir moyi hisobiga undan tayyorlangan va olingan preparatlar yallig`lanishga qarshi, balg`am ko`chiruvchi, spazmolitik (silliq mushaklarni bo`shashtiruvchi) va qisman mikroblarga qarshi ta`sir ko`rsatish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, uning yana bir noyoblik jihati shundaki, uning quritilgan poya va urug`laridan tayyorlangan qaynatma emizikli

ayollar iste`mol qilsa, chaqaloqlarning qorni dam bo`lmaydi. Hattoki shunday shifobaxshlik xususiyatiga egaki, chaqaloqning o`ziga ham ichirish maqsadga molikdir.

Shuning uchun uni turli shakldagi dori vositalari sifatida nafas yo`llarining shamollashi, oshqozon – ichak faoliyatini yaxshilash uchun keng miqyosda ishlatilsa, yaxshi samara beradi.

Ibn Sino arpabodiyon mevasini nafas olish qiyinlashganda, uni yengillashtirish uchun va terlatuvchi dori sifatida hamda boshqa kasalliklarda ham qo`llashni tavsiya etgan.

Xalq tabobatida o`simlik mevasidan tayyorlangan damlama terlatuvchi, siydik va o`t haydovchi, ishtaha ochuvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Bundan tashqari, arpabodiyonning efir moyi qo`shilgan kompleks preparatlar ham mavjud. Ko`krak eleksiri va novshadil E – arpabodiyon tomchisi shular jumlasidandir.

Ekma kashnich – Ziradoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub xushbo`y hidli, bir yillik o`t o`simlik.

Iyun – avgust oylarida gullab, mevasi avgust – sentyabr oylarida pishib yetiladi.

O`zbekistonda sug`oriladigan yerlarda (asosan, tomorqalarda) ekiladi. Chet ellarda keng tarqalgan.

Tibbiyotda kashnichning mevasi va undan olinadigan efir moyidan foydalaniladi. Mevalari, odatda, yozning ikkinchi yarmida yetila boshlaydi.

Kashnich mevasi tarkibida 0,7 – 1,5% efir moyi, 10 – 20% yog`, 11 – 17% oqsil va boshqa moddalar bor. Mevaning asosiy ta`sir qiluvchi birikmasi efir moyidir, efir moyiniki esa uning tarkibidagi xushbo`y, yoqimli hidli linalool (60 – 80%) va geraniol (5%) spirtlari hisoblanadi.

Tibbiyotda dorivor mahsulot sifatida kashnichning mevasi va efir moyidan foydalaniladi.

Ibn Sino kashnich mevasini me`da – ichak kasalliklarida qo`llagan.

Xalq tabobatida kashnich mevasining dorivor preparatlari (kukuni, damlama, nastoyka) ovqat hazm bo`lishining buzilishida, qorinning dam bo`lishida, gijjalarni haydashda qo`llaniladi.

Kashnich mevasining uni, damlamasi, efir moyi va spirtli suvi o`t haydovchi, ishtahani ochuvchi, og`riq qoldiruvchi va ovqat hazm bo`lishini yaxshilovchi ta`sirga ega. Shuning uchun ular jigar, o`t qopi (xoletsistit, xolangit) va me`da – ichak kasalliklarida (gastrit, metiorizm — ichning dam bulishi va boshqalarda) ishlatiladi.

Kashnich mevasi me`da kasalligida va bavoilda ishlatiladigan hamda o`t haydovchi yig`malar tarkibiga kiradi

Xushbo‘y shivid, poliz (xushbo‘y) ukrop – Ziradoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub, bir yillik, o‘ziga xos yoqimli hidli o‘t o‘simlik.

O‘zbekistonda ziravor o‘simlik sifatida ekiladi. Chet ellarda keng tarqalgan.

Tibbiyotda xushbo‘y shividning mevasidan foydalaniladi. Mahsulot yoz oylarida (mevalarning 50—60 %i pishganda) yig‘iladi. Buning uchun o‘simlik o‘riladi.

Shivid mevasi tarkibida 4 % gacha efir moyi, 20 % gacha moy, kumarinlar, flavonoidlar, oqsil va boshqa moddalar bo‘ladi. Efir moyining asosiy qismi ketonkarvon (moyda 50 % gacha) va apiol (3 % gacha) lardir.

Mevaning asosiy ta‘sir etuvchi biologik faol moddalari efir moyi, kumarinlar va flavonoidlar kompleksi hisoblanadi.

Xalq tabobatida shividning yer ustki qismi va mevasidan foydalaniladi. Tayyorlangan damlama ishtahani ochuvchi va ovqatning hazm bo‘lishini yaxshilovchi hamda yel haydovchi dori sifatida ishlatiladi.

Tibbiyotda o‘simlik mevasining damlamasi qorin sanchiqlarida, surunkali spastik kolitlarda va boshqa kasalliklarda qo‘llaniladi.

Qalampir yalpiz – Yalpizdoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub ko‘p yillik xushbo‘y hidli o‘t o‘simlik.

Iyul – avgustda gullab, avgust – sentyabrda mevasi pishib yetiladi.

O‘zbekistonda yovvoyi holda uchramaydi. Toshkent viloyatida o‘stiriladi. Chet ellarda madaniy sharoitda ko‘p navlari ekiladi.

Tibbiyotda qalampir yalpizning bargi va undan olinadigan efir moyidan foydalaniladi. O‘simlik g‘unchalagan vaqtida yoki yarim guli ochilganda o‘rib olinadi. Agar kuzgacha yana ko‘karib gullasa, ikkinchi marta o‘rib olinadi.

Qalampir yalpiz bargining asosiy ta‘sir qiluvchi shifobaxsh birikmasi uning tarkibidagi efir moyi va uning tarkibiy qismi hisoblangan mentoldir (moy tarkibida 41 – 70 % bo‘ladi).

Xalq tabobatida yalpiz bargining damlamasi jigar va o‘t pufaklari kasalliklarida o‘t haydovchi, og‘riq qoldiruvchi, qusishga qarshi, ovqatni hazm qildiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Yalpiz bargi va uning efir moyi turlicha farmakologik ta‘sir ko‘rsatadi. Chunonchi, tinchlantiruvchi, spazmolitik (spazmga qarshi), antiseptik (mikrobgga qarshi) va o‘t haydovchi xossalarga ega. Ular ta‘sirida oshqozon sekretsiyasi kuchayadi, ishtaha yaxshilanadi, silliq muskullarni bo‘shashtirib, spazmlarni yo‘qotadi, jigar o‘tini ko‘paytiradi.

Shularga asoslangan holda, o‘simlik preparatlari (damlama, nastoyka, yalpiz suvi) oshqozon – ichak sanchiqlarida, qorin dimlanishida, ko‘ngil aynishida, qayt qilishda qo‘llaniladi.

Oddiy qora zira – Ziradoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub ikki yillik o‘t o‘simlik. Birinchi yili ildizoldi barglari, ikkinchi yili poyasi o‘sib chiqadi.

Iyun – iyul oylarida gullab, mevasi iyulda pishib yetiladi.

O‘zbekistonda Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tog‘ yonbag‘irlarida tarqalgan. Chet ellarda keng tarqalgan.

Tibbiyotda qora ziraning mevasidan va ulardan olinadigan efir moyidan foydalaniladi.

Qora zira mevasi tarkibida 3 – 7 % efir moyi, 14—22 % moy, 20 – 23 % oqsil moddalar, flavonoidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bo‘ladi.

Mevalarning asosiy ta‘sir ko‘rsatuvchi shifobaxsh birikmalari ularning efir moyi hisoblanadi.

Amaliyotda qora ziraning mevasidan, undan olingan efir moyidan va suvidan foydalaniladi. Ularning tarkibidagi efir moyi, flavonoidlar o‘simlikning biologik faolligini ta‘minlaydi.

Ibn Sino o‘simlik mevasidan yel va gijja haydovchi hamda terlatuvchi vosita sifatida foydalangan.

Xalq tabobatida mevaning tayyorlangan damlama yoki qaynatma me‘da – ichak kasalliklarini (ovqat hazm bo‘lishining buzilishini) davolashda, o‘t va yel haydovchi dori sifatida qo‘llaniladi.

Qora zira mevasi preparatlarining asosiy farmakologik ta‘siri ishtahani ochish, me‘da shirasini kuchaytirish, ovqat hazm bo‘lishini yaxshilashdan iborat. Qora zira ta‘sirida o‘t pufagidan o‘t chiqishi ortadi. Shu sababdan o‘simlik preparatlari ishtahani ochish, ovqatning hazm bo‘lishini ta‘minlash hamda ichak sanchig‘ida ishlatiladi. Meva damlamasi (2 choy qoshiq meva 1 stakan qaynab turgan suvga solib damlanadi, suziladi), ovqatning hazm bo‘lishini yaxshilash va qorin sanchig‘ini qoldirish uchun kuniga 1 osh qoshiqdan 3 – 4 marta ichiladi. Qora zira mevasi yel va siydik haydovchi hamda me‘da kasalliklarida qo‘llaniladigan yig‘ma-choylar tarkibiga kiradi.

Oddiy petrushka – Ziradoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub, bir yillik o‘t o‘simlik.

Iyulda gullab, avgustda meva beradi.

O‘zbekistonda ziravor o‘simlik sifatida ekiladi. Chet ellarda (ayniqsa, O‘rta Yer dengizi atroflarida) keng tarqalgan.

Tibbiyotda petrushkaning mevasidan foydalaniladi.

Petrushka mevasi tarkibida 2 – 6 % efir moyi, 22 % gacha moy va flavonoidlar (apiol, apigenin, lyuteolin va boshqalar) bo‘ladi.

Petrushka mevasining asosiy ta‘sir qiluvchi biologik faol moddalari uning tarkibidagi efir moyi (asosiy qismi apiol) va flavonoidlar hisoblanadi.

Petrushkaning barglari va ildizi tabobatda iste'mol qilinadi. Ularda efir moylari, flavonoidlar, glikozidlar bo'lgani uchun turlicha farmakologik ta'sir ko'rsatadi.

Xalq tabobatida petrushka buyrak va yurak xastaliklarida, siydik haydovchi dori sifatida ishlatilib kelinadi.

Ildizi va mevasi ustida olib borilgan farmakologik tekshirishlar natijasida ularning efir moylari hisobiga diuretik (siydik haydovchi) ta'siri ancha yuqori ekanligi va yurak faoliyatiga yurak glikozidlari (marvaridgul, sug'uro't, angishvonagul o'simliklari) singari, lekin kuchsizroq ta'sir etishi aniqlangan. Shu sababdan petrushka siydik ajralishining kamayishi bilan kechadigan kasalliklarda (yurak poroki, nefrit, jigar kasalliklari — shishlarda) yoki organizm to'qimalarida suv yig'ilishi bilan davom etadigan kasalliklarda keng miqyosda qo'llaniladi. Lekin buyrak va siydik qopining o'tkir yallig'lanishida (o'tkir nefrit, o'tkir sistit) va homilalik davrida tavsiya etilmaydi. Bundan tashqari, damdmyaalangan petrushka suvi bilan ko'z yuvib turilsa, ravshanlashadi, yuz yuvilsa tiniqlashib, oqaradi, dog'lar kamayadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tabiatdagi har bir o't o'simlik o'zining murakkab kimyoviy tarkibiga ega. Bunday o'simliklardan esa tabobatda keng foydalanish juda samaralidir. Chunki, biz sotib olayotgan dori vositalari tarkibi bilan tanishib chiqsak, yuqorida nomi keltirilgan o'simliklar ularning asosi ekanligiga guvoh bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nabiev M. Sabzavot, rezavor mevalar va ziravorlar xosiyati. - T.: “Mehnat”, 1990. - 155 b.
2. Xojimatov Q. Efir moyli o'simliklar. - T.: “Fan”, 1971.- 30 b.
3. Y.E.Ikromova “Dorivor o'simliklarning murakkab tarkibi” XXI asrda biologiyaning rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning ahamiyati. Jizzax 2021.
4. Y.E.Ikromova “O'simliklarning dorivorlik xususiyatlari, murakkab tarkibi va qo'llanilishi” Obrazovanie I nauka v XXI veke. Vipusk 18 (tom 3) SENTABR.2021
5. Y.E.Ikromova “Topinambur - istiqbolli dorivor o'simlik” “uzliksiz bilimlendiriu sistemasında aralıyıtan otsıtyıudıy integratsıyası” atamasında otkeriletugın xalıkaralıq ilimiy-teoriyalıq konferensiya. Nukus 2021.
6. Y.E.Ikromova “Dorivor o'simliklarni himoya qilish” XXI asrda biologiyaning rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning ahamiyati. Jizzax 2021.